






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyunida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 10833,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 103,1 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	
	I. YaHM	9 185,9	10 833,8	103,1
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 767,6	10 526,5	103,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	418,3	307,3	101,5
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 767,6	10 526,5	103,2
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 426,4	4 102,7	104,6
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 822,0	2 335,3	106,5
	sanoat	1 138,3	1 495,7	104,5
	qurilish	683,7	839,6	109,7
	Xizmatlar	3 519,2	4 088,5	100,1

		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	752,6	831,3	97,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	548,4	597,1	100,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 218,2	2 660,1	100,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 3838,0 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga yuqoridir.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 0,1 % punktga kamaydi va hisobot yilida 39,0 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmogʻining ulushi 14,2 % dan iborat boʻlib, 1,2 % ga oshdi, qurilishniki esa 0,2 % punktga oʻsdi va 8,0 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 38,8 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 1,3 % punktga pasaydi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019-yil	2020-yil
	I. YaIM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	95,4	97,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,6	2,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	39,1	39,0
	Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	20,8	22,2
	sanoat	13,0	14,2
	qurilish	7,8	8,0
	Xizmatlar	40,1	38,8
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	8,6	7,9


	2019-yil	2020-yil
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	5,7
 boshqa xizmat tarmoqlari	25,2	25,2





Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jami ga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 104,6 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 39,0 %), sanoatda – 104,5 % (14,2 %), qurilishda – 109,7 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 100,1 % ni (38,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda (97,8 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa (100,7 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlarida (100,7 %) o`shish holatlari kuzatildi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i YaHMning 1,7 f.p., sanoat 0,6 f.p., qurilish 0,7 f.p. ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,1 f.p. ga o'sishi ta'minlandi.



2020-yil yanvar-iyun oylarida YaIM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 117,1 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 116,2% qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

